



TARJIMADA ADEKVATLIK DINIY TERMINLAR MISOLIDA

Quvondiqova Mahbuba Zokir qizi

Alisher Navoiy nomidagi

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

mustaqil tadqiqotchisi

Ilmiy rahbar: fil. fanlari doktori, dots, Z.Q.Teshaboyeva

Annotatsiya. Ushbu tezisdagi adekvatlik tushunchasi va uning tarjimadagi ahamiyati yoritib berilgan. Adekvatlik borasida bir qancha olimlar va mutaxassislar fikrlari ochib berilgan. Adekvatlik tushunchasi diniy terminlar misolida tahlil qilingan.

Kalit soʻzlar: *adekvatlik, tarjima, adekvat tarjima, asl matn, tarjima modeli, xutba, mavlo, izhir.*

Hozirgi kunda tarjima sohasida faoliyat olib borayotgan mutaxassislar va izlanuvchilar adekvat, adekvatlik kabi atamalarga koʻp bora duch kelishmoqda. Adekvat (lotincha *adaequatus* – tenglashgan, mos, aynan bir, oʻxshash) – bilish nazariyasida narsa va hodisalarning xossalari va aloqalarini ularning obyektiv mazmuniga toʻgʻri keladigan, aniq va mos qilib olish. Inson ongi obyektiv borliqni ijtimoiy amaliyot asosida adekvat aks ettira boradi [1]. Demak, ushbu soʻzni qisqaroq tarzda “bir-biriga mos” deb tushunishimiz mumkin. Asarlar tarjimasini tahlil qilish jarayonida ularning turli tillarga asliyatdan qilingan tarjimalari bir-biriga qanchalik muvofiq ekanligi ham tahlil qilinadi. Bu oʻrinda albatta adekvatlik tushunchasi ahamiyatga ega hisoblanadi.

Adekvatlik borasida olimlar turli fikrlarni bildirganlar. Komissarov fikricha, “adekvat tarjima” atamasi kengroq maʼnoga ega va “yaxshi” tarjimaning sinonimi sifatida ishlatiladi, yaʼni muayyan sharoitlarda tillararo muloqotning zaruriy toʻliqligini taʼminlagan tarjima. Adekvatlik – asliyat va tarjima matnlarning shunday mutanosibligiki, unda tarjimadan qilingan maqsad koʻzda tutiladi. “Adekvatlik” va “adekvat” atamaları tarjimini doimiy, protsessual narsa sifatida tavsiflaydi [2; 945].

Adekvat tarjima – bu matnni faqat soʻzma-soʻz emas, balki uning maʼnosi, vazifasi va kommunikativ niyatini toʻliq yetkazib bera olishdir. Boshqacha aytganda, adekvatlik tilshunoslik chegaralaridan chiqib, maʼno, uslub va kontekst kabi chuqur qatlamlarni ham qamrab oladi. Ushbu maqolada tarjimada adekvatlik tushunchasi, uning nazariy asoslari, ilmiy yondashuvlar hamda tarjimon uchun muhim boʻlgan tamoyillar batafsil yoritib beriladi. Adekvatlikning nazariy negizlari bir nechta mashhur tarjima maktablarida ishlab chiqilgan. Eng



avvalo, lingvistik tarjima nazariyasi tarafdorlari – Roman Yakobson va Yujin Nayda bu borada muhim hissa qo'shgan. Xususan, Nayda tomonidan ilgari surilgan formal va dinamik ekvivalentlik g'oyalari adekvatlikka asos bo'ldi. Unga ko'ra, tarjima o'z auditoriyasida asl matn qanday ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, xuddi shunday reaksiyani chaqirishi kerak [3; 18].

Tartu universitetining semiotika professori Piter Torop o'zining "Total Translation" asarida bitta asarni adekvat tarjima qilishning sakkizta modelini ko'rib chiqadi. U adekvat tarjima jarayonini ideal tarzda amalga oshirish, deb hisoblaydi. Adekvat tarjimada tahlil va sintez jarayonlari transpozitsiyasi va asl munosabatlarning xususiyatlarini saqlab qolgan holda manba matnini qayta kodlash sodir bo'ladi. Binobarin, munosabatlarning xususiyatlari turli yo'llar bilan saqlanishi mumkinligi sababli, bir xil asl matnning bir nechta adekvat tarjimalari bo'lishi mumkin [4; 104].

Quyida bir nechta diniy terminlarning adekvatlik jihatlarini ko'rib chiqamiz. Imom al-Buxoriyning "Al-Jome' as-Sahih" asaridagi 3-bo'lim 13-bob 71-hadisda *خطبة* atamasi kelgan. O'zbek tiliga bu so'z *xutba* deb tarjima qilingan. Ingliz tiliga Muhammad Muhsin Xon tomonidan *Khutba (religious talk)* deb tarjima qilingan bo'lsa, Muhiddin ibn Ahmad tomonidan qilingan tarjimada *to narrate* shaklida berilgan. "Oxford Languages" lug'atida *to narrate* so'ziga bunday ta'rif berilgan: *give a spoken or written account of ya'ni biror narsani og'zaki yoki yozma tarzda hikoya qilib berish*. Biroq "xutba" so'zi aynan diniy termin bo'lib, uni shunchaki *hikoya qilish* deb tarjima qilish u qadar maqsadga mos kelmaydi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da *xutba* so'zining izohi quyidagicha:

1. *din*. Juma va Hayit kunlarida imom xatibning sunnatdan keyingi (farzdan oldingi) va'zxonligi; diniy pand-nasihat.
2. Nikohlash vaqtida o'qiladigan duo [5].

Bu misoldan ko'rishimiz mumkinki, *خطبة* termini tarjimasida o'zbek tilidagi va Muhsin Xon tomonidan qilingan tarjimalarda adekvatlikka erishilgan. Ibn Ahmad tarjimasida esa adekvatlik namoyon bo'lmaydi.

Mana shu asarning 3-bo'lim 28-bob 92-hadisida *مولا* atamasi uchraydi. O'zbek tiliga *mavlo* ("mavlo" so'zi bu yerda ozod qilgan qul ma'nosida kelgan), ingliz tiliga esa har ikkala muallif tomonidan *maula* (the freed slave) deb tarjima qilingan. Bu terminning tarjimalarida adekvatlik mavjud.

3-bo'lim 39-bob 112-hadisda *الإذخیر* atamasi kelgan bo'lib, o'zbek tiliga *Izhir* (Makkada o'sadigan mashhur xushbo'y o'simlik) tarzida, Muhsin Xon tomonidan esa *Al-Idhkhir* (a type



of grass that has good smell) shaklida tarjima qilingan. Bu tarjimalarda ham adekvatlikni ko'rishimiz mumkin.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, adekvatlik atamasi o'z o'rnida keng qamrovli tushunchadir. Yuqorida ushbu terminning olimlar tomonidan turlicha talqin qilinganligini ko'rib o'tdik. Adekvat tarjima esa ko'pchilik tarjimonlar tomonidan eng ma'qul tarjima turlaridan biri sifatida e'tirof etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. [O'zME](#). Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
2. Jamoliddinova M.D. "Adekvatlik" va "ekvivalentlik" konsepsiyasining o'zaro bog'liq xususiyatlarini takomillashtirish. *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*. 3(6), June, 2023. 945 b.
3. Nurimbetova M.K. Tarjimada adekvatlik va uning nazariy asoslari. *Ilm-fan va innovatsiya ilmiy-amaliy konferensiyasi*. 18 b.
4. Qudratova M.S. Badiiy tarjimada adekvatlik turlari. *Pedagogik islohotlar va ularning yechimlari*. 1-iyul, 2024. 104 b.
5. <https://izoh.uz/word/xutba>